

FUNKSIONAL YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KREATIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nurjanova Rayxan Urazbaevna – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Rayxannukus@gmail.com

Qori niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОДХОДА

Нуржанова Райхон Уразбаевна – *кандидат педагогических наук, доцент*

Национальный институт педагогики воспитания имени Кори Ниязи

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CREATIVE ACTIVITY IN FUTURE EDUCATORS BASED ON A FUNCTIONAL APPROACH

Nurjanova Raykhon Urazbaevna – *Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor*

Qori Niyoziy national institute of educational pedagogy

Tayanch so'zlar: bo'lajak tarbiyachilar, kreativlik, fikrlash faolligi, pedagogik jarayon, pedagogik shart-sharoitlar, psixologik xususiyatlar, kompetensiya, ijodkorlik, tafakkur, layoqat.

Rezyume. Mazkur maqolada funksional yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, kreativ faollik pedagogning kasbiy faoliyatida yangicha yondashuvlar, kasbiy pedagogik faoliyatning progressiv yo'nalishi, tafakkur va ijodkorlik orasidagi munosabatlar bayon etilgan.

Ключевые слова: будущие воспитатели, креативность, мыслительная активность, педагогический процесс, педагогические условия, психологические особенности, компетенция, творчество, мышление, способность.

Резюме. В статье изложены педагогико-психологические особенности развития креативной активности у будущих воспитателей на основе функционального подхода, креативная активность – новые подходы в профессиональной деятельности педагога, прогрессивное направление профессионально-педагогической деятельности, взаимосвязь между мышлением и творчеством.

Key words: future educators, creativity, thinking activity, pedagogical process, pedagogical conditions, psychological characteristics, competence, creativity, thinking, aptitude.

Summary. This article describes the pedagogical and psychological features of the development of creative activity in future educators based on a functional approach, creative activity, new approaches in the professional activity of a teacher, the progressive direction of professional pedagogical activity, the relationship between thinking and creativity.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida kechayotgan islohotlar bo'lajak pedagog kadrlarning nafaqat bilimli, balki ijodkor, mustaqil fikrlovchi, innovatsion faoliyatga tayyor bo'lishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning kreativ faolligi bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ faollik pedagogning kasbiy faoliyatida yangicha yondashuvlar, noodatiy yechimlar topa olish, ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish bilan namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Chunki ular kreativ xarakterdagi pedagogik faoliyatni amalga oshirish layoqatiga ega bo'lishlari, konstruktiv qarorlar qabul qila olishlari, nostandart tafakkur va xulq-atvor tajribasiga ega bo'lishlari, o'z tajribalarining mazmun mohiyatini anglashlari va uni muntazam oshirishlari kerak. Qo'yilgan vazifalar bilan bog'liq holda oliy pedagogik ta'lim jarayoni zamonaviy talablardan kelib chiqib bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatini optimallashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash, ularni yangi dasturlar asosida ishlashga tayyorlash, zarur metodikalar bilan qurollanishlariga sharoit yaratish imkoniyatiga ega bo'lishlarini talab etmoqda.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta'lim tizimida kechayotgan islohotlar bo'lajak pedagoglardan, xususan, maktabgacha ta'lim tarbiyachilaridan yuqori darajadagi ijodiy yondashuvni talab etmoqda. Ijodkor tarbiyachi bolaning shaxs sifatida rivojlanishida muhim o'rin

egallaydi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarning ijodkorligini shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ijodkorlik turlarini ajratishning asosi jamiyatda mavjud bo'lgan inson faoliyatining barcha turlari muayyan darajada ijodkorlikni talab qiladi. Biroq bu faoliyat turlarining ayrimlari asl ijodiy, boshqalari esa nisbiy ijodiy hisoblanadi.

Asl ijodiy faoliyat turlariga yangi narsani axborot yoki moddiy mahsulot ko'rinishida yaratish maqsadi ustuvorlik qiladi, unda mavjud bo'lgan funksiyallik reproduktiv yoki mahsudorlik xarakteriga ega. Bunday faoliyat turlariga, ilmiy ijodiy faoliyat, badiiy ijod, texnik ijodkorlik kabilar kiradi. Shuningdek, o'z faoliyatiga yangilikni joriy etishni talab qiladigan barcha harakatlarni kiritish mumkin. Jumladan kasbiy pedagogik faoliyat ham ijodkorlik va uning yuqori darajasi hisoblangan kreativlikni talab qiladi.

Nisbiy ijodiy faoliyat turlariga esa mahsulotlarni muayyan namuna va standartlar asosida ishlab chiqarishga oid faoliyatni ko'rsatish mumkin. Bunga ijod vosita sifatida namoyon bo'ladigan faoliyat turlari kiritiladi. Barcha faoliyat turlari tarkibida funksionallik va ijodkorlik komponentlari mavjud.

M.M.Baxtinning ta'biri bilan aytganda, ijodkorlik shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi hisoblanadi [2]. Har qanday kasbiy faoliyat, shu jumladan pedagoglik kasbi ham ijodkorlikni talab qiladi. pedagogik ijodkorlik birinchi navbatda funksional xarakterga ega. Chunki, rivojlanish, tabiat va jamiyatda kechadi. Shuning uchun ham rivojlanish sifat jihatidan o'zgarishga olib keladi. Inson faoliyatida

rivojlanish biz o'rganayotgan kontekstda pedagogik faoliyatni o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Chunki pedagogik faoliyat birinchi navbatda ongli, kasbiy ijodiy faoliyat hisoblanadi.

Mutaxassislar ijod va ijodkorlik bilan bog'liq to'rtta muhim jihadni ajratib ko'rsatganlar. Ular:

1. Ijodiy vaziyat.
2. Ijodkor shaxs.
3. Ijodiy jarayon.
4. Ijod natijasi.

V.V.Bayluk esa bunga qo'shimcha tarzda ijodkorlikning beshinchi jihati sifatida uning ijtimoiy shart-sharoitlarini ham alohida ajratib ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan [1]. Chunki jamiyat va insonning taraqqiyoti progressiv va regressiv yo'nalishlarda amalga oshadi. Aynan kasbiy pedagogik faoliyat ham progressiv hamda regressiv xarakteriga ega. Kasbiy pedagogik faoliyat bo'lajak o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, qadriyat, kompetensiya va ijtimoiy tajribani uzatish, shu bilan bir qatorda o'zining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan uzluksiz faoliyatidir. Mazkur rivojlanish dinamik xarakterga ega bo'lib, muayyan sharoitlar bilan bog'liq holda qarab progressiv rivojlanuvchi yoki regressiv susayuvchi yo'nalishda kechishi mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatning progressiv yo'nalishi bo'lajak pedagogning kasbiy kompetensiyalari izchil ravishda o'sib borishi, innovatsiyalarga ochiqligi va pedagogik mahoratining chuqurlashishi bilan tavsiflanadi. Uning asosiy belgilari sifatida kasbiy bilimdonlik va ijodkorlikni shakllanishi, o'z o'zini rivojlantirish, innovatsion va kreativ fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lish, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ko'nikmalarini egallaganligi, o'z o'zini doimiy refleksiyalashi va faoliyatini tahlil qilishi, ijtimoiy-madaniy va raqamli kompetensiyalarga egaligi kabilarda nomoyon bo'ladi. Bunday talabalar sirasiga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ilmiy tadqiqot va metodik izlanishlarda ishtirok etish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surish, tarbiyalanuvchilar bilan sog'lom sosiometrik munosabatlar o'rnatish ko'nikmasiga ega bo'lgan talabalarni kiritish mumkin. Bunday yondashuvni qo'llab quvvatlash natijasida maktabgacha ta'lim samaradorligi oshadi, bo'lajak tarbiyachilarda o'zi egallayotgan kasbdan qoniqish hissi paydo bo'ladi, tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlanishga oid metodik mahoratni egallash motivlari vujudga keladi.

Kasbiy pedagogik faoliyatning regressiv yo'nalishi bo'lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatni egallashida pasayish, stagnatsiya yoki deformatsiya kuzatilishi bilan ifodalanadi. Uning asosiy belgilari kasbiy bilimlarni egallashni xolamaslik, innovatsiyalarni o'zlashtirish motivlarining pastligi, shablon va mexanik metodikalarni o'rganishga moylik, o'zi egallayotgan kasbga nisbatan bafarq munosabatda bo'lish, o'z o'quv faoliyati natijalarini tahlil qilmaslik, ijodiy faoliyatga intilmaslik kabilarda namoyon bo'ladi. Bo'lajak tarbiyachilarda mazkur holatning vujudga kelishi bir qator sabablar bilan bog'liq. Ular ortiqcha yuklama va bosimlarning mavjudligi, kasbiy bilimlarni egallash jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, ijtimoiy rag'batning pastligi, uzoq vaqt bir xil topshiriqlar ustida ishlash kabilardan iborat. Buning natijasida pedagogik ta'lim sifati va

samaradorligi pasayadi, professor-o'qituvchi va talabalar orasidagi sosiometrik munosabatlar buziladi, talabalarda kasbiy deformatsiya, bafarqlik vujudga keladi.

Kasbiy pedagogik faoliyat o'z o'zidan progressiv xarakter kasb etmaydi. U talabalarning kasbiy faoliyatni maqsadli egallashi va o'z bilimlarini muntazam rivojlantirishi, institusional qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy pedagogik muhit yordamida progressiv faoliyatga yo'naltirish asosida amalga oshadi. Aks holda, tashqi va ichki omillar ta'sirida talabalar tomonidan egallanayotgan kasbiy pedagogik faoliyat regressiv xarakter kasb etishi mumkin.

Bo'lajak tarbiyachilardagi progressiv xarakterdagi ijodkorlik produktiv, kreativ xarakter kasb etadi. Uning asoslarini bo'lajak tarbiyachining qadriyatli yo'nalishlari, haqiqat, ezigulik, go'zallik, barcha uchun foydali bo'lish kabi pedagogik qadriyatlar tashkil etadi. Uning natijasini esa bo'lajak tarbiyachining kasbiy-madaniy jihatdan o'z o'zini rivojlantirish, namoyon qilishiga asos bo'lib xizmat qiladigan kasbiy bilimlar va pedagogik qadriyatlaridir.

Progressiv xarakterdagi ijodkorlik sifatlariga ega bo'lgan bo'lajak tarbiyachilar istiqbolda maktabgacha ta'limni rivojlantirish, mashg'ulotlarni ijodiy tashkil etish orqali tarbiyalanuvchilar bilan ijoiy, kollaborativ ishlash ko'lamini kengaytirishga muvaffaq bo'ladilar. Regressiv faoliyat ko'nikmasiga ega bo'lgan tarbiyachilar esa, tarbiyalanuvchilar bilan shaxslararo qadriyatli munosabat o'rnatolmaydilar. Natijada maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini pasaytirish, ota-onalar va bolalar bilan munosabatlarni keskinlashtirishga sababchi bo'ladilar.

Psixologlar inson ongining ikkita asosiy funksiyasini ajratib ko'rsatganlar. Ular aks ettirish va ijodiy funksiyalardir. Aks ettirish natijasida atrof olamda mavjud bo'lgan narsalarning obrazlari shaxs ongida shakllanadi, ijod jarayonida esa insonlar tomonidan ob'ektlarning obrazi, betarkor mahsulotlar yaratiladi. Shunga ko'ra ba'zi psixologlar ijodkorlik aks ettirish emas, degan xulosaga kelganlar. Bunday mutaxassislar sirasiga A.Bergson, B.Kroche, K.Rodgers, A.Maslou, D.P.Gilford, E.P.Torrens, N.Berdyaev, S.Rubinshteyn L.Vigotskiy, Ya.Ponomaryov, V.V.Bayluk kabilarni kiritish mumkin.

Inson ongi nafaqat tashqi dunyoni aks ettiradi, balki uni yaratadi ham. Bizning fikrimizcha, inson ongi ikki funksiyani bajaradi: aks ettirish va boshqaruvchi funksiyalarni. Shu bilan bir qatorda voqelikni aks ettirishning uch turi mutaxassislar tomonidan ajratib ko'rsatilgan.

1. Mavjud narsalarni ular qanday bo'lsa, shunday holatda aks ettirish.

2. Real narsalar va jarayonlarda, shuningdek insonning o'zida mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aks ettirish, ya'ni hozircha real mavjud bo'lmagan, ammo muayyan shart-sharoitlarda voqelikka aylanishi mumkin bo'lgan holatlarni ham aks ettirish.

3. Har qanday darajadagi sub'ektlar tomonidan voqelik bilan bo'lgan jarayonlar va hodisalarini shaxs ehtiyojlarni qondirish nuqtai nazaridan qiymati va ahamiyatini baholash orqali aks ettirish.

Ta'lim jarayoni sub'ektlari orasidagi qadriyatli munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Insonlar tomonidan voqelikni aks ettirish uch yo'nalishga ega. Ular predmetli, loyihaviy va aksiologik aks ettirishdan iborat. Inson tomonidan voqelik hodisalarini aks ettirishning har bir turi

doimo qolgan ikkitasi bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra inson ongi uch tarkibiy qism birligida uning har qanday faoliyatini boshqaruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda loyihaviy ong ideal shakl sifatida yetakchi o'rin egallaydi. Ushbu faoliyat qay darajada ongli ravishda anglanishidan qat'i nazar boshqaruvchilik xarakteriga ega bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan predmetli, qadriyatli va loyihaviy aks ettirish yangi bilimlarni yaratishga asos bo'lsa, ijodkorlikning turlari sifatida namoyon bo'ladi.

Tafakkur ijtimoiy shartlangan, nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan, mohiyatan yangi narsani izlash va kashf etishga qaratilgan psixik jarayon, shuningdek, voqelikni tahlil va sintez jarayonida bilvosita va umumlashtirilgan holda aks ettirish jarayonidir.

Pedagogika ensiklopediyasida "TAFAKKUR [a. – fikr yuritish, o'ylash, fikrlash] 1. Ob'ektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash. 2. O'ylash, fikr yuritish, muhokama; o'y. 3. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; ob'ektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni" tarzida ta'rif berilgan [3]. Tafakkur inson mohiyatining tarkibiy qismi, bilishning olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqichi hisoblanadi. Tafakkur bir qator xususiyatlarga ega. Ular voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish, borliqni bilvosita ifodalash, shaxs tafakkurini ijodiy xarakterga ega ekanligini namoyon qilish, tafakkurning ona tili bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'lishi kabilar. Pedagogika uchun shaxs tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Zero, Pedagogik ensiklopediyasida pedagogik tafakkurga quydagicha ta'rif berilgan:

"PEDAGOGIK TAFAKKUR – pedagogik hodisalar haqida yuqori darajada fikrlash faoliyatini anglatuvchi tushuncha. Pedagogik tafakkur bilishning vujudga kelishi natijasida hosil bo'ladi. Ob'ektiv hamda sub'ektiv xarakterdagi munosabatlar ustida ishlash kattalar bilan o'quvchilarning o'zaro aloqalari shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining pedagogik tafakkuri kasbiy layoqat ifodasi sifatida shakllanadi. Bunday tafakkur o'qituvchiga pedagogik hodisalar ustida fikrlash, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, baholash imkonini beradi. Pedagogik nazariya va g'oyalarni yaratish, metodik kashfiyotlarni amalga oshirish, faollik va ijodkorlik sifatlariga ega bo'lish o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish samaradorligini ta'minlaydi. Bularning barchasi o'qituvchi pedagogik tafakkurining mahsuli hisoblanadi" [3]. Ushbu ta'riflarda tafakkur va pedagogik tafakkurning ayrim xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. Birinchidan, tafakkur mohiyatan yangi bo'lmagan, ya'ni faqat xususiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilikni ham aks ettiradi. Ikkinchidan, yakka hukmlarda umumlashtirish mavjud bo'lmaydi. Uchinchidan, ushbu ta'rifdan ta'lim oluvchilar tafakkurga egami yoki yo'qmi, degan savolga aniq javob olish qiyin, chunki ular, asosan, oldindan mavjud bo'lgan bilimlarni o'zlashtiradilar.

Tafakkur ham, ijodkorlik kabi, ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazlarini yaratish jarayonidir. Natijada tafakkur amalda ijodkorlikning bir turi loyihaviy ijod bilan teng kelishi ta'kidlangan.

Taniqli mutaxassis R. Rutning fikriga ko'ra, ijodkorlik noodatiy natija beruvchi mahsuldor tafakkur faoliyatidir. Ko'plab mutajxassislar jumladan, R.I.Kuzmina R.Rutning ushbu fikrini qo'llab quvvatlaganlar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijod jarayonida ongli jarayonlar bilan bir qatorda ongsiz omillarning ham ishtirok etishi aniqlangan [1].

Tafakkur va ijodkorlik orasidagi munosabat muayyan darajada murakkab hisoblanadi. Har qanday tafakkur jarayoni yangi bilimlarning vujudga kelishini ta'minlaydi. Ijodiy tafakkur jarayoni yangi maqsadlarni qo'yish va mazkur tafakkur doirasida yangi loyihalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ko'rinib turibdiki ijodkorlik inson tafakkuri bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Shunga ko'ra ijodkorlik tafakkur qilishni taqozo etadi. Ijodkorlik tasavvursiz mavjud bo'lmaydi.

Tasavvur, hayol tushunchalarini mutaxassislar turlicha ta'riflaganlar. Tasavvur, ya'ni fantaziya insonning amaliy, hissiy, intellektual hamda emosional-ma'naviy tajribasi mazmunini qayta ishlash orqali voqelikning yangi, yaxlit obrazlarini yaratishga qaratilgan universal qobiliyatidir. Tasavvur insonning istiqboldagi faoliyat sohasini egallash usuli hisoblanadi. Bu shaxsning o'z faoliyati maqsadini belgilashini ta'minlaydi. Shuning uchun ham u loyihaviy xarakterga ega. Ijodkorlikning psixologik asosi bo'lgan tasavvur madaniyat shakllarining tarixiy yaratilishini ham, ularning ontogenezda o'zlashtirilishini ham ta'minlaydi. Tasavvur inson ijodiy faoliyatining zaruriy elementi bo'lib, u yangi kashfiyotlar yaratish, muammoli vaziyat noaniqlik bilan tavsiflangan hollarda xulq-atvor dasturini ishlab chiqishni ta'minlashda namoyon bo'ladi. Tasavvur passiv va faol xarakterga ega.

Inson tasavvur yordamida faoliyat turlarini o'zgartirish imkoniyatiga ega. Shunga ko'ra bo'lajak tarbiyachilarda faol tasavvurni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki faol tasavvur bo'lajak tarbiyachining istiqboldagi pedagogik faoliyati uchun muhim hisoblanadi. Bo'lajak tarbiyachining loyihalash faoliyati kasbiy ijodkorlikning o'ziga xos ko'rinishidir. Ushbu faoliyatning asosini tarbiyalanuvchilar va pedagogik jarayon haqidagi kasbiy bilimlar egallaydi. Pedagogik jarayon loyihalarida bo'lajak tarbiyachining kreativ kompetentligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bo'lajak tarbiyachilar loyihalash faoliyati jarayonida pedagogik jarayon uchun zarur bo'lgan loyihalarni shakllantiradilar. Loyiha tarbiyachi real faoliyatning ifodasidir. Shuning uchun ham bo'lajak tarbiyachilar pedagogik faoliyatga kirishishdan oldin uning real shaklini yaratadilar. Bu loyihada pedagogik jarayonning ideal modeli ishlab chiqiladi.

Bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatlari mahsuli bo'lgan pedagogik jarayon loyihalarida o'zlarining ongli maqsadlarini amalga oshirishga muvaffaq bo'ladilar. Ushbu maqsadlar bo'lajak tarbiyachining harakat usullari va kasbiy faoliyat xarakteriga ta'sir qiladi. Bo'lajak tarbiyachining loyihalash faoliyatda, ya'ni faoliyatning ideal shaklida, birinchidan, istiqboldagi kasbiy faoliyat obrazi yaratiladi va unda bo'lajak tarbiyachining kasbiy ehtiyojlari ham aks etadi. Ikkinchidan, tarbiyachi ta'lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlar mazmunini bayon qiladi. Uchinchidan, bo'lajak tarbiyachining qo'yilgan maqsad sari harakatlanish yo'li belgilab beriladi. To'rtinchidan, qo'yilgan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar ko'rsatiladi.

Beshinchidan, pedagogik jarayon sub'ektining obrazi yaratiladi. Shu tariqda bo'lajak tarbiyachi tasavvurining ifodasi sifatida pedagogik jarayon loyihasi uning istiqboldagi faoliyatini tashkil etuvchi, nazorat qiluvchi va vujudga keldigan bo'shliqlarni korrektsiyalovchi pedagogik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu faoliyat natijasida pedagogik jarayon maketi yaratiladi va funksional faoliyat jarayonida qo'llaniladi. Ushbu loyiha asosida pedagogik jarayon tashkil etiladi.

Xulosa. Funksional faoliyat jarayonida esa bo'lajak tarbiyachilarda va pedagogik jarayonda yangi ehtiyojlar va imkoniyatlar vujudga keladi, avval yangi bo'lgan loyihalar eskiradi va yangi mukammal loyihalarga ehtiyoj tug'iladi. Natijada bo'lajak tarbiyachilar o'z o'zini kasbiy rivojlantirishning yangi cho'qqisiga ko'tariladilar. Shuning uchun ham funksional kreativlik bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi va ularni ijodiy pedagogik faoliyat sub'ekti sifatida namoyon bo'lishlarini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Байлук В. В. Принципы и методы воспитания и самовоспитания студентов: учеб. Пособие. – Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т., 2015.
2. Бахтин М.М. Формальный метод в литературоведении. – Москва: «Лабиринт», 2003.
3. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.